ISSN:2828-6235
Impact factor:13.77

International Journal of Literature and Language Studies(IJLLS)

UDK: *821.512.133::821.161.1(045)*

AMIR TEMUR OBRAZINING ILK BADIIY MODELLARI: O‘ZBEK VA RUS ADABIYOTIDA «ICHKI» VA «TASHQI» NIGOH

Dilfuza Pardayeva

Filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent,

Qarshi davlat universiteti

Rus tili va adabiyoti kafedrasi

E-mail: paradise.dil13@gmail.com

Tel: (91) 227-98-98

QIU professori, f.f.d. **B.Yo‘ldoshev** taqrizi asosida

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.24085162

Annotatsiya. Maqola Amir Temur siymosining badiiy so‘z san’atida ilk bor qanday gavdalanganini og‘zaki epos va o‘rta asr yozma adabiyoti bosqichlarini o‘zbek va rus an’analari kesimida o‘rganadi. Tadqiqot Alisher Navoiy asarlari, qadimgi rus adabiyoti yodgorligi «Повесть о Темир-Аксаке» hamda H. Sodiqov va boshqa folklorshunoslar tomonidan yozib olingan o‘zbek xalq rivoyatlariga tayanadi. Qiyosiy-tipologik va imagologik yondashuvlar, shuningdek madaniy xotira nazariyasi asosida obrazni tasvirlashning ikki mustaqil tipologik modeli asoslab beriladi. O‘zbek adabiyotidagi «ichki» modelda Temur Alloh tanlagan hukmdor, ilm-fan va madaniyat homiysi, davlatchilik timsoli sifatida namoyon bo‘ladi; rus adabiyotidagi «tashqi» modelda esa u xavf manbai, ilohiy sinov vositasi va «yangi Batuxon» sifatida idrok etiladi. Tahlil natijalari bir xil tarjimai hol tafsilotlari: oqsoqlik, yoshlik yillari, xalqqa munosabat, ya’ni ikki an’anada qarama-qarshi ma’no kasb etishini ko‘rsatadi. Muallif fikricha, bu tafovut tarixiy faktlardagi farqdan emas, balki madaniy xotiraning turlicha strategiyalaridan kelib chiqadi va tizimli xarakterga ega bo‘lib, obrazning keyingi asrlar adabiyotidagi evolyutsiyasi yo‘nalishini oldindan belgilab beradi.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, o‘zbek adabiyoti, rus adabiyoti, Alisher Navoiy, «Temir-Oqsoq haqida qissa», xalq rivoyatlari, og‘zaki-epik an’ana, imagologiya, madaniy xotira, «ichki» va «tashqi» model.

ПЕРВЫЕ ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ МОДЕЛИ ОБРАЗА АМИРА ТЕМУРА: «ВНУТРЕННИЙ» И «ВНЕШНИЙ» ВЗГЛЯД В УЗБЕКСКОЙ И РУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация. Статья исследует, как фигура Амира Тимура впервые воплотилась в художественном слове: устно-эпический этап и этап средневековой письменной словесности рассматриваются в разрезе узбекской и русской традиций. Исследование опирается на сочинения Алишера Навои, древнерусскую «Повесть о Темир-Аксаке», а также узбекские народные предания, записанные Х. Содиковым и другими фольклористами. На основе сравнительно-типологического и имагологического подходов, а также теории культурной памяти обосновываются две самостоятельные типологические модели изображения образа. Во «внутренней» модели узбекской словесности Тимур выступает избранным свыше правителем, покровителем науки и культуры, олицетворением

государственности; во «внешней» модели русской книжности он воспринимается как источник опасности, орудие божественного испытания и «новый Батый». Результаты анализа показывают, что одни и те же биографические детали: хромота, годы юности, отношение к народу, наполняются в двух традициях противоположным смыслом. По мнению автора, это расхождение обусловлено не различием исторических фактов, а несходством стратегий культурной памяти; оно носит системный характер и заранее определяет направление эволюции образа в литературе последующих столетий.

Ключевые слова: Амир Тимур, узбекская литература, русская литература, Алишер Навои, «Повесть о Темир-Аксаке», народные предания, устно-эпическая традиция, имагология, культурная память, «внутренняя» и «внешняя» модель.

EARLY LITERARY MODELS OF THE IMAGE OF AMIR TEMUR: THE “INSIDER” AND “OUTSIDER” PERSPECTIVES IN UZBEK AND RUSSIAN LITERATURE

Abstract. The article explores how the figure of Amir Timur was first embodied in verbal art, considering the oral-epic stage and the stage of medieval written literature across the Uzbek and Russian traditions. The study draws on the works of Alisher Navoi, the Old Russian Tale of Temir-Aksak, and Uzbek folk narratives recorded by H. Sodikov and other folklorists. Building on comparative-typological and imagological approaches together with the theory of cultural memory, it substantiates two independent typological models of portraying the figure. In the "internal" model of Uzbek literature, Timur is a divinely chosen ruler, a patron of learning and culture and an embodiment of statehood; in the "external" model of Old Russian writing he is perceived as a source of danger, an instrument of divine trial and a "new Batu". The analysis demonstrates that the same biographical details: lameness, the years of youth, attitude to the people, acquire opposite meanings in the two traditions. The author argues that this divergence stems not from differing historical facts but from dissimilar strategies of cultural memory; it is systemic and predetermines the direction in which the image evolves in the literature of later centuries.

Key words: Amir Timur, Uzbek literature, Russian literature, Alisher Navoi, The Tale of Temir-Aksak, folk narratives, oral-epic tradition, imagology, cultural memory, internal and external model.

Kirish (Introduction)

Amir Temur shaxsi milliy o‘zlikni anglashning shakllanishiga uzoq muddatli ta’sir ko‘rsatuvchi tarixiy siymolar sirasiga kiradi. Bunday obrazlar xalqning jamoaviy xotirasiga yozma manbalar, epos, folklor va badiiy adabiyot orqali kirib boradi, har bir davr esa ularni o‘z savollari prizmasi orqali qayta o‘qiydi. Aynan og‘zaki-epik va o‘rta asr yozma bosqichlarida badiiy anglashning dastlabki modellari shakllanadi; keyinchalik ular asrlar davomida qayta yaratiladi, o‘zgaradi va qayta talqin etiladi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, Amir Temur obrazi o‘zbek va rus adabiyotlarida tubdan farqli madaniy nuqtayi nazarlarda ichki va tashqi nuqtayi nazarlarda shakllangan, biroq bu nuqtayi nazarlarni qiyoslash hozirga qadar tizimli tipologik tavsifga ega bo‘lmagan. Maqolaning maqsadi – obrazni tasvirlashning har ikki dastlabki modelini qayta tiklash hamda ularning tasodifiy emas, balki obrazning keyingi davrlar adabiyotidagi evolyutsiyasini belgilagan tizimli xarakterga ega ekanini ko‘rsatishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Tadqiqot materiali sifatida o‘rta asr yozma adabiyoti (Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois», «Tarixi muluki Ajam», «Xamsa», «Muhokamat ul-lug‘atayn» asarlari), «Qadimgi Rus adabiyoti kutubxonasi» va solnoma to‘plamlarida taqdim etilgan tahrirlardagi qadimgi rus «Temir Aqsak haqida qissa»si, shuningdek H. Sodiqov va boshqa to‘plovchilar tomonidan yig‘ilgan va nashr etilgan o‘zbek og‘zaki-epik merosi olindi. Keyingi davr materiali: rus o‘rta asr stereotipining barqarorligini namoyon etuvchi S. Borodinning «Samarqand uzra yulduzlar» asari ham jalb qilinadi.

Ishning metodologik asosini qiyosiy-tipologik va imagologik yondashuvlar hamda madaniy xotira nazariyasi tashkil etdi. Qiyosiy-tipologik metod obrazni tasvirlashning barqaror modellarini aniqlash va ayni bir biografik motivlarning ikki an’anadagi talqinini qiyoslash imkonini beradi. Imagologik yondashuv kuzatuvchining ichki yoki tashqi madaniy nuqtayi nazari bilan belgilanadigan «o‘z» va «begona» hukmdor obrazining shakllanish mexanizmini ochib beradi. Madaniy xotira konsepsiyasi Temurning adabiy obrazini tarixiy haqiqatning aksi sifatida emas, balki jamoaviy xotirlashning turli strategiyalari natijasi sifatida ko‘rib chiqishga asos beradi. Tahlil jarayoni asosiy motivlarni (oqsoqlik, yoshlik, hokimiyat xususiyati, xalqqa munosabat) ajratish, ularni o‘zbek va rus an’analarida qiyoslash hamda aniqlangan tafovutlarni talqin qilishni o‘z ichiga oldi.

Muhokama va natijalar (Results and Discussions)

O‘zbek an’anasi: idrokning ichki modeli

O‘zbek madaniyatining o‘rta asr yozma an’anasida Amir Temur obrazi, avvalo, ideal hukmdor va ma’naviy hayot homiysi haqidagi tasavvurlar kontekstida shakllanadi. XV asrning buyuk mutafakkiri va shoiri Alisher Navoiy buyuk sarkarda nomiga ko‘p marta murojaat qilib, uning davlat boshlig‘i va turkiy madaniyat homiysi sifatidagi ahamiyatini ta’kidlagan. «Majolis un-nafois» tazkirasida Navoiy Temurning ilm-fan rivojiga qo‘shgan hissasi va iste’dodli kishilarni qo‘llab-quvvatlaganini qayd etadi [1]; «Tarixi muluki Ajam» tarixiy asarida esa uning harbiy yutuqlari va davlatga barqarorlik baxsh etgan ma’muriy islohotlarini ko‘rsatadi. «Xamsa» turkumidagi dostonda Temur dono va adolatli hukmdor namunasi sifatida taqdim etiladi [3], «Muhokamat ul-lug‘atayn» risolasida esa Navoiy saroyda fors tili bilan teng qo‘llanilgan turkiy tilning yuksalishida Temur va uning atrofidagilarning rolini ta’kidlaydi [2]. Aynan shu adabiyotda XX–XXI asrlar she’riyatida qayta kuch oladigan mavzular: iroda, ma’naviy barqarorlik, xalq va tarix oldidagi mas’uliyat mavzulari asoslanadi.

Yozma an’ana bilan bir qatorda xalq ijodi — afsonalar, dostonlar va rivoyatlar ham muhim rol o‘ynadi. Agar yozma manbalar homiy-hukmdorning rasmiy talqinini mustahkamlagan bo‘lsa, og‘zaki an’ana obrazni jonli tafsilotlar, mo‘jizaviy motivlar va ibratli syujetlar bilan boyitdi. Bunday syujetlar shakllanishining asosiy markazi Samarqand bo‘lib, bu yerda Sohibqiron «to‘rt tomon hukmdori» obrazi shakllangan. Hamdam Sodiqovning «Amir Temur hayotidagi g‘aroyibotlar» (2007) to‘plami alohida o‘rin tutadi: unda Temur hayot yo‘li bilan bog‘liq alomatlar haqidagi afsonaviy-mifologik material jamlangan [6]. Anqara jangi paytida qarorgoh uzra go‘yo «ikki quyosh» ko‘tarilgani haqidagi syujet e’tiborga molik: xalq tasavvuri Temurni tarixiy obraz uzil-kesil shakllanishidan oldinoq tanlanganlik nuri bilan o‘rab olgan.

«Maktabdorning bashorati» afsonasi xarakterlidir. Bo‘lajak hukmdorning onasi Takina begim o‘g‘lida noyob qobiliyatni – uning ikkala qo‘lini ham birdek ishonch bilan ishlata olishini payqaydi. Mulla Alibek buni yuqoridan berilgan alomat deb talqin qiladi. [6]. Ikkala qo‘l bilan

yoza olish ramziy jihatdan «ikki tomonlama hokimiyat»ga hukmdorning qilich va qalamni teng egallashi qobiliyatiga tenglashtiriladi. Afsona shayxning bolani Qur'on o'qiydigan va qurol ishlata oladigan qilib tarbiyalash haqidagi maslahati bilan yakunlanadi; bu o'zbek madaniyatiga xos fikrni mustahkamlaydi: ideal hukmdor diniy va dunyoviy tarbiyani o'zida mujassam etishi lozim. Tuzilishiga ko'ra rivoyat odatiy folklor mantiqini quradi: bashorat → ramziy alomat → ustozlar muloqoti → taqdirning muqarrar ijrosi.

Ikkala qo'l bilan yoza olish xalq ongida yanada kengroq ramziy o'lchov kasb etadi: «ikki qo'lli inson» favqulodda iste'dodlarga ega universal hukmdor obraziga aylanadi: rivoyat Temurni shunday xususiyatga ega bo'lgan buyuk tarixiy shaxslarga yaqinlashtirishi bejiz emas. Syujetning ko'p ovozliligi (onaning kuzatuvi – otaning savoli – mullaning izohi – shayxning nasihati) ishonchlilik va oilaviy muloqot vaziyatiga daxldorlik ta'sirini kuchaytiradi; har bir tafsilot ramziy yuk tashiydi, epizodning o'zi esa qahramonning butun kelajak taqdiri bir necha qisqa sahnada jamlangan «ixcham mif» sifatida quriladi. Bunday tuzilma ko'plab qahramonlar: Bibliya podsholaridan tortib epik bahodirlargacha, ular haqidagi afsonalarda takrorlanadi, biroq o'zbek an'anasida u hokimiyati tug'ilishidan oldinoq muqaddaslashtirilgan va bashorat qilingan hukmdorning barqaror obrazini mustahkamlaydi.

Sodiqov to'plamidagi yana bir syujet «Yo'lbars bilan yuzma-yuz» afsonasi. Amir Temur kambag'al kiyimini kiyib, xalqning jonli so'zini eshitish va ehtiyojlarini bilish uchun Ahmad Yassaviy maqbarasiga ziyoratchi bo'lib yo'lga chiqadi [6]. «Yashirin aylanib chiqish» motivi afsonani Sharq va jahon an'anasi bilan «Ming bir kecha»dagi Horun ar-Rashiddan tortib qirol Artur haqidagi rivoyatlargacha bo'lgan an'ana bilan yaqinlashtiradi. Ov sahnasi kulminatsiyaga aylanadi: cho'pondan podalarni bezovta qilayotgan yo'lbars haqida eshitgan Temur o'zi yirtqichga qarshi chiqadi va «Allohu akbar!» xitobi bilan uni nayza bilan yengadi. Yo'lbars ustidan g'alaba hukmdor ham o'z mahoratiga, ham Allohning madadiga tayanishining ramziy dalili bo'lib qoladi, xalqning qo'llab-quvvatlashi esa uning kuchini ko'paytiradi. Shunday qilib, o'zbek an'anasi ham yozma, ham og'zaki: har qanday biografik tafsilotni tanlanganlik alomati sifatida talqin qiladi.

Rus an'anasi: idrokning tashqi modeli

Qadimgi rus kitobiy adabiyotida boshqacha model shakllanadi: unda Temur siymosi tashqi kuzatuvchi nuqtayi nazaridan anglanadi va diniy-apokaliptik tasavvurlar tizimiga kiritiladi. Uning asosini Temurning 1395-yilgi Rusga yurishi haqida hikoya qiluvchi «Temir Aqsak haqida qissa» (XIV asr oxiri – XV asr o'rtalari) tashkil etdi [4]. Oltin O'rda zulmidan charchagan Rus fotih haqidagi mish-mishlarni «yangi Batuxon» deyarli apokaliptik shakldagi tahdid haqidagi xabar sifatida qabul qilgan. Yoshlik epizodining o'ziyoq obrazni axloqiy tubanlik motivi orqali quradi: yosh Temur ochlikdan qo'y o'g'irlaydi, qo'lga tushib, qattiq kaltaklanadi va oyog'i sindiriladi; tuzalgach, u «оковал себе железом ногу свою перебитую» («singan oyog'ini temir bilan kishanlab oldi») «Temir Aqsak», ya'ni «Temir Oqsoq» laqabi shundan kelib chiqqan [4].

Qadimgi rus kontekstida bu epizod kamsitish vazifasini bajaradi. Agar o'zbek afsonalari Temurning yoshligini buyuklik bashoratlari bilan to'ldirsa, rus solnomasi «past» narsadan: o'g'irlik va sharmandalikdan boshlanadi. Oqsoqlik bu yerda tanlanganlik belgisi emas (o'zbek an'anasidagi jangda yaralanish kabi), balki qaroqchi tamg'asidir. Yoshlik epizodidan so'ng «Qissa» 1395-yil voqealariga o'tadi: Temurning To'xtamishxon ustidan g'alabasi bir tahdidning boshqa, yanada dahshatliroq tahdid bilan almashinuvi sifatida qabul qilinadi, Batuxon bilan to'g'ridan-to'g'ri qiyoslash esa fotihni apokaliptik siymoga aylantiradi. Shu bilan birga qo'rquv ortidan taskin ham ko'rinadi: agar Rus Batuxonni boshidan kechirgan bo'lsa, Temurni ham boshidan kechiradi. Tarix ilohiy saboqqa aylanadi, unda fotih mustaqil kuch emas, balki ilohiy irodaning quroli.

«Qissa»ning kulminatsiyasi – bu Vladimir ikonasi bilan bog‘liq mo‘jiza. 1395-yil 15-avgustda, Bibi Maryamning vafoti bayramida moskvaliklar ikonani duo marosimi bilan kutib oladilar va Temur kutilmaganda qo‘shinini ortga buradi. Shaharning qutqarilishi harbiy kuch bilan emas, balki yuqoridan bo‘lgan shafoat bilan izohlanadi [4]. Bu yerda Temur obrazi tarixiy subyektlikdan butunlay mahrum bo‘ladi: u o‘z xohishi bilan kelmagan (Xudo gunohlar uchun yo‘l qo‘ygan) va o‘z xohishi bilan ketmagan (Xudo duo tufayli qaytargan). Agar o‘zbek an’anasida Temur tarixning faol yaratuvchisi bo‘lsa, rus «Qissa»sida u bosh rollar Xudo va Bibi Maryamga tegishli bo‘lgan begona dramadagi siymodir.

«Temir Aqsak haqida qissa» solnomaviy hujjatlilik va afsona poetikasini birlashtiradi. Ma’lum bo‘lgan ikki tahririda – XV va XVI asrlar tahrirlarida xronikal tuzilma saqlanadi: yurishlar, janglar va diplomatik missiyalar tavsifi psixologik chekinishlarsiz chiziqli tarzda qurilgan, bu esa asarni rasmiy solnomaga yaqinlashtiradi. Tadqiqotchilar tilning o‘ziga xos soddaligi, fe’lli konstruksiyalarning ustunligi («шёл», «брал», «строил» - «bordi», «oldi», «qurdi»), formulaviy sifatlashlar («железный Тимур» - «temir Temur»), shuningdek og‘zaki hikoya taassurotini uyg‘otuvchi bayon ritmikligini qayd etadilar [9]. Aynan shunday quruq, deyarli rasmiy uslub matnga har bir yurish oliy adolat belgisi sifatida talqin qilinadigan rasmiy hujjat tusini beradi. XIV asrda «Qissa» ikki tomonlama vazifani bajargan: real voqealar xotirasini saqlagan va bir vaqtning o‘zida vayronagarchilikni ilohiy jazo ko‘rinishi sifatida olib keluvchi dahshatli fotih obrazini shakllantirgan.

«Qissa»da asoslangan model g‘oyat hayotchan bo‘lib chiqdi. Hatto XX asr o‘rtalarida ham rus adabiyoti «qaroqchilik o‘tmishi» motivini takrorlagan: S. Borodinning «Звёзды над Самаркандом» («Samarqand uzra yulduzlar», 1953-1971) trilogiyasi Nikon solnomasidan olingan epigraf bilan boshlanuvchi «Хромой Тимур» («Oqsoq Temur») kitobi bilan ochiladi; bu muallifning o‘rta asr an’anasiga tayanishini hujjatli tarzda mustahkamlaydi [7]. O‘zbek tadqiqotchisi Z. J. Pardayeva haqli ravishda ta’kidlaganidek, Borodin Temurning tarixiy shaxsini «с уровня искусного полководца, великого Сахибкирана до обычного разбойника» (mohir sarkarda, buyuk Sohibqiron darajasidan oddiy qaroqchi darajasiga) tushiradi [11]. Shunday qilib, XIV asrda shakllangan «qaroqchi» stereotipi rus madaniy ongida XX asrgacha barqarorligini saqlab qoldi va faqat XX asr oxiri – XXI asr boshlariga kelib rus adabiyoti ancha muvozanatli baholashga qarab harakatlana boshladi.

Ikki an’ana o‘rtasidagi asosiy farq idrokning madaniy nuqtayi nazarida ildiz otgan. O‘zbek an’anasi uchun Temur «o‘ziniki», milliy o‘zlikning uzviy qismi; u oqlanishga muhtoj emas va davlatchilik, adolat hamda Temuriylar davri madaniy yuksalishining ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Rus an’anasi uchun Temur «begona», o‘z xavfsizligi prizmasi orqali anglanadigan qo‘rquv obyekti; uning yurishi imon sinoviga, Moskvaning qutqarilishi esa diniy mo‘jizaga aylanadi. Bu farq ayni bir motivlarning talqinida yaqqol namoyon bo‘ladi (1-jadval).

1-jadval. Amir Temur obrazi asosiy motivlarining ikki an’anadagi talqini

Motiv	O‘zbek an’anasi	Rus an’anasi
Oqsoqlik	Tanlanganlik belgisi, mardlik ramzi (jangda yaralanish)	O‘g‘irlik uchun jazo, sharmandalik tamg‘asi

Motiv	O‘zbek an’anasi	Rus an’anasi
Yoshlik	Buyuklik bashorati, ikki qo‘llilik, taqdir alomatlari	Qo‘y o‘g‘irlash, qaroqchilik o‘tmishi
Hokimiyat	Adolat, xalqqa homiylik	Dahshatli kuch, ilohiy jazo
Xalqqa munosabat	Xalq bilan muloqot uchun qiyofani o‘zgartirish, ehtiyojlarga g‘amxo‘rlik	Fotih, tahdid

Ayni bir biografik fakt – oqsoqlik bir-biriga tamomila zid talqin oladi: o‘zbek an’anasida bu mardlik belgisi, rus an’anasida esa qaroqchi tamg‘asi. Obrazning vazifalari ham farqlanadi. O‘zbek madaniyatida Temur obrazi xalqni davlatchilik va madaniy vorislik g‘oyasi atrofida birlashtirib, jipslashtiruvchi rol o‘ynaydi; u haqidagi afsonalar axloqiy mo‘ljal bo‘lib xizmat qiladi. Rus madaniyatida obraz xalqning o‘z ma’naviy kuchini anglashiga yordam beruvchi sinov sifatida amal qiladi: bosqindan qutulish Rusning ilohiy homiylik ostida ekanining isbotiga aylanadi.

An’analarning vorisiyligi ham turlicha. Navoiy va og‘zaki eposdan boshlangan o‘zbek an’anasi adabiyotning butun tarixi davomida saqlanib kelayotgan ijobiy poydevorni yaratdi: obraz qahramonona bo‘lib qolaveradi, faqat urg‘ular o‘zgaradi: madaniyat homiysidan milliy uyg‘onish ramziga, davlat arbobidan ma’naviy mo‘ljalga. Rus an’anasi esa salbiy stereotipni mustahkamladi, uning barqarorligini XX asrda S.Borodin ham namoyon etadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Og‘zaki-epik va o‘rta asr yozma an’anasi bosqichidayoq Amir Temur obrazini badiiy tasvirlashning ikki tubdan farqli tipologik modeli shakllanadi. O‘zbek madaniyatida ichki model ustunlik qiladi: unda Temur tanlangan hukmdor, bunyodkorlik missiyasi sohibi, davlatchilik va madaniy homiylik ramzi sifatida anglanadi. Rus o‘rta asr adabiyotida tahdid, ilohiy sinov va voqealarni diniy-apokaliptik anglash motivlariga asoslangan tashqi model shakllanadi.

Bu tafovutlar tasodifiy emas, balki tizimli xarakterga ega: ular turlicha tarixiy haqiqatni emas, balki madaniy xotiraning turlicha strategiyalarini aks ettiradi. O‘zbek adabiyoti Temurga milliy tajriba ichidan, rus adabiyoti esa tashqaridan - o‘z tarixiy taqdiri prizmasi orqali nazar tashlaydi. Aynan shu dastlabki modellar obrazning keyingi evolyutsiyasi trayektoriyasini belgilaydi: o‘zbek an’anasida ijobiy barqaror, rus adabiyotida esa salbiydan ancha muvozanatli talqinga qarab asta-sekin rivojlanib boruvchi trayektoriya.

Tadqiqotning keyingi istiqboli sifatida har ikki modelning XX-XXI asrlar adabiyotidagi transformatsiyasini, bir tomondan, jadid she’riyatida va mustaqil O‘zbekiston nasrida Temur obrazining qayta anglanishini, ikkinchi tomondan, rus adabiyotida salbiy stereotipning bosqichma-bosqich yengib o‘tilishini kuzatish maqsadga muvofiq ko‘rinadi. Temur obrazini boshqa milliy an’analarda qiyosiy o‘rganish ham samarali yo‘nalish bo‘lib, bu badiiy xotiraning ichki va tashqi nuqtayi nazarlari tipologiyasini aniqlashtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References)

1. Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис // Мукаммал асарлар тўплами: 20 жилдлик. - Тошкент: Фан, 1987–2003.
2. Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн // Мукаммал асарлар тўплами: 20 жилдлик. - Тошкент: Фан, 1987–2003.
3. Алишер Навоий. Хамса // Мукаммал асарлар тўплами: 20 жилдлик. - Тошкент: Фан, 1991.
4. Библиотека литературы Древней Руси / РАН. Ин-т рус. лит. (Пушкинский Дом); под ред. Д. С. Лихачёва и др. - СПб.: Наука, 1999. - Т. 6: XIV - середина XV века. - 583 с.
5. Полное собрание русских летописей. - Т. XI: Летописный сборник, именуемый Патриаршею или Никоновскою летописью. - М.: Языки русской культуры, 2000.
6. Содиқов Ҳ. Амир Темур ҳаётидаги ғаройиботлар: Тарихий бадиалар. - Тошкент: ART FLEX, 2007. - 320 б.
7. Бородин С. П. Звёзды над Самаркандом: трилогия. Кн. 1: Хромой Тимур. Ташкент: Узбекистан, 1981. - 320 с.
8. Бертельс Е. Э. Избранные труды. Навои и Джами. - М.: Наука, 1965. - 498 с.
9. Иванов П. П. Повесть о Темир Аксаке // Средневековые тексты Востока. - М.: Наука, 2008. - С. 40-56.
10. Комарова А. В. Хроникальные представления о Тимуридах. - СПб.: Восток-Пресс, 2015. - С. 102-115.
11. Пардаева З. Ж. Художественно-типологическая интерпретация исторических героев в русской и русскоязычной литературе Узбекистана: автореф. дис. … канд. филол. наук. - Ташкент, 1995. - 24 с.
12. Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий: манбаларнинг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили. - Тошкент: Akademnashr, 2011. - 272 б.
13. Ҳайитметов А. Алишер Навоийнинг адабий-танқидий қарашлари. - Тошкент: Фан, 1959. - 232 б.